

Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlari


2026- yil yanvar-fevral oyi uchun

- I. Jami bajarilgan qurilish ishlari
- II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari
- III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti
- IV. Qurilish ishlari bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Jami bajarilgan qurilish ishlari

2026- yilning yanvar-fevral oyida, Buxoro viloyatida jami 1 611,2 mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 111,4 % ni tashkil etdi.

Bajarilgan qurilish ishlari dinamikasi



	Hajm, mlrd so'm	O'sish sur'ati, %
Buxoro viloyati	1 611,2	111,4
Buxoro sh.	241,9	87,8
Kogon sh.	39,8	2,2 m.
Olot tumani	61,0	138,0
Buxoro tumani	53,4	92,3
Vobkent tumani	34,8	137,8
G'ijduvon tumani	60,6	92,4
Kogon tumani	59,3	149,8
Qorako'l tumani	52,3	83,3
Qorovulbozor tumani	129,7	172,1
Peshku tumani	49,9	96,1
Romitan tumani	128,7	129,9
Jondor tumani	85,8	95,4
Shofirkon tumani	68,7	114,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

[Qurilish ishlari hajmi \(yillik\)](#)

II. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


2026- yilning yanvar-fevral oyida Buxoro viloyatida bajarilgan qurilish ishlarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi quyidagicha:

- binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 65,0 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 115,5 % ni tashkil etdi;

- fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 23,6 % ulushni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 106,0 % ni tashkil etdi;

- ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 11,4 % ulushni va 2025- yilning mos davriga nisbatan 101,7 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari o'sish sur'ati va hajmi



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha korxonalar kesimida qurilish ishlari

	Bino va inshootlar qurilishi	Fuqarolik obyektlari qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
Yirik qurilish tashkilotlari hajmi, mlrd so'm	128,7	68,3	71,3
o'sish sur'ati, %	2,0 m.	113,1	96,1
Kichik korxonalar va mikrofirmalar hajmi, mlrd so'm	309,8	312,0	113,2
o'sish sur'ati, %	105,9	104,5	105,5
Norasmiy sektor hajmi, mlrd so'm	607,9	-	-
o'sish sur'ati, %	110,3	-	-

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Bino va inshootlar qurilishi hajmi \(yillik\)](#)


[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(oylik\)](#)

[Fuqarolik obyektlari qurilishi hajmi \(yillik\)](#)

[Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi \(oylik\)](#)

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi (yillik)

III. Jami qurilish ishlari hajmining korxonalar turlari bo'yicha taqsimoti va o'sish sur'ati




Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan 2026- yilning yanvar-fevral oyida bajarilgan qurilish ishlari hajmi 268,3 mlrd so'mni tashkil etdi. Ko'rib chiqilayotgan davrda qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 135,9 % ni va ularning umumiy hajmdagi ulushi 3,0 % ga ko'payib, 16,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 45,6 % i to'g'ri kelib, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2025- yilning mos davriga nisbatan 105,3 % ni tashkil etgan holda 735,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektorda qurilish ishlarining ulushi 37,7 % ni yoki 607,9 mlrd so'mni tashkil etib, 2025- yilning mos davriga nisbatan 110,3 % ni tashkil etdi.

Korxonalar turlari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari



**Hududlar kesimida korxonalar turlari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

	Hajm, mlrd so'm			O'sish sur'ati, % da		
	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor	Yirik	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Buxoro viloyati	268,3	735,0	607,9	135,9	105,2	110,3
Buxoro sh.	25,9	186	30	82,1	86,9	99,8
Kogon sh.	3,7	31,3	4,8	4,7 m.	2,4 m.	100,9
Olot tumani	26,3	25,5	9,2	6,8 m.	81,6	101,3
Buxoro tumani	1,3	37,4	14,7	105,8	88,5	102,0
Vobkent tumani	2,6	23,5	8,7	32,2 m.	139,3	104,3
G'ijduvon tumani	11	31,4	18,2	198,3	74,0	103,3
Kogon tumani	2,6	45,2	11,5	48,8	179,9	125,5
Qorako'l tumani	12,4	30,8	9,1	78,7	79,2	111,1
Qorovulbozor tumani	113	15,1	1,6	168,9	3,0 m.	46,5
Peshku tumani	1,1	35,1	13,7	84,1	90,1	117,2
Romitan tumani	27,4	85,9	15,4	75,9	172,3	117,8
Jondor tumani	1,1	74,1	10,6	112,5	94,2	103,0
Shofirkon tumani	12,5	45,8	10,4	143,0	107,2	120,4

Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Vobkent tumanida (32,2 m.), Olot tumanida (6,8 m.) va Kogon shahrida (2025- yilning mos davriga nisbatan 4,7 m.) qayd etildi.

Ko'rib chiqilayotgan davrda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori o'sish sur'atlari Qorovulbozor tumanida (2025- yilning mos davriga nisbatan 3,0 m.), Kogon shahrida (2,4 m.) va Kogon tumanida (179,9%) kuzatildi.

IV. Qurilish ishlari uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qurilish ishlari – bino va inshootlarni barpo etish, qayta tiklash, kengaytirish, kapital va joriy ta'mirlash ishlari majmuasi sifatida qurilish ishlab chiqarishining natijasidir.

Qurilish ishlari qiymatiga qurilish uchastkalarining o'zlashtirish ishlari rejasini tuzish va tayyorlash, suv ta'minoti, issiqlik, kanalizatsiya, poydevorlarni o'rnatish, devorlarni ko'tarish, bino konstruksiyalarini montaj qilishning sanitar-texnika ishlari, boshqa pudrat ishlari (ishga tushirish va sozlash, gidroyuvish ishlari, yer qatlamini ochish, texnik-madaniy ishlar va boshqalar) kiritiladi.

Qurilish ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo'shilgan qiymat solig'ini qo'shmagan holda, to'lov muddatidan qat'i nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo'yicha amalga oshiriladi.

Qurilish ishlari hajmi bo'yicha statistik ma'lumotlar quyidagilar asosida shakllantiriladi:

- a) qurilish faoliyatini olib boruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik);
- b) kichik korxonalar va mikrofirmalar faoliyatining choraklik tanlanma kuzatuv natijalari;

d) jismoniy shaxslar tomonidan yakka tartibdagi uy-joy va noturar-joy obyektlar qurilishi monitoringi bilan shug'ullanuvchi O'zbekiston Respublikasi Davlat kadastrlari palatasining hududiy boshqarmalari statistika hisobotlari;



- e) foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarni tanlama statistik kuzatuv ma'lumotlari;
f) yakka tartibdagi uy-joylarni xo'jalik usuli bilan ta'mirlash hajmini statistik baholash.

Metama'lumot uchun havola:

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1875/Qurilish-ishlari.pdf>

<https://stat.uz/files/349/METAMALUMOTLARuz/1877/Aholi-ion-boshiga-qurilishishlari.pdf>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Investitsiyalar va qurilish
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

Sh. Xodjaev
65 223-81-99 (8020)

Manzil:

200100, Buxoro sh.,
S.Ayniy ko'chasi, 3-uy
